

## YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOT POYDEVORI

*Abdumuxtorov Muslimbek Abdullajon o'g'li*  
*Zokirov Zohidjon Toxirjon o'g'li*  
*Namangan Davlat Texnika Universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yangi Konstitutsiyaning inson qadr-qimmati, qiymati va huquqlarining ishonchli kafolati sifatidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Davlatning asosiy qonuni sifatida Konstitutsiya har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada yangi Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari, inson huquqlarini ta'minlashdagi yutuqlari va jamiyatda ijtimoiy adolatni rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot beriladi.

Ushbu maqola yangi Konstitutsiyaning ijtimoiy hayotdagi o'rnini va inson huquqlarini kafolatlashdagi ahamiyatini ochib beradi. O'quvchilarni inson huquqlari masalalariga e'tibor berishga va davlatning ushbu sohadagi majburiyatlarini tushunishga undaydi. Yana bir muhim jihat sifatida Konstitutsiyaning zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiqligi muhokama qilinadi. Bu esa yangi Konstitutsiyaning nafaqat bizning mamlakatimizda, balki global miqyosda inson huquqlarini himoya qilishdagi kengaytirilgan rolini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, demokratik, suverenitet, ijtimoiy adolat, parlament, teng huquq

**Аннотация:** В данной статье анализируется важность новой редакции Конституции как надежной гарантии человеческого достоинства, ценностей и прав. Конституция, будучи основным законом государства, играет ключевую роль в защите прав и свобод каждого гражданина. В статье рассматриваются основные принципы новой редакции Конституции, достижения в обеспечении прав человека и ее роль в обеспечении социальной справедливости в обществе. Также предоставляется информация о мерах, предпринимаемых для защиты и развития прав человека.

Статья раскрывает место новой Конституции в социальной жизни и ее значение в обеспечении прав человека. Она побуждает читателей обратить внимание на вопросы прав человека и понять обязательства государства в этой области. Еще один важный аспект — это соответствие Конституции современным требованиям и международным стандартам. Это расширяет роль новой редакции Конституции не только в нашей стране, но и на глобальном уровне в защите прав человека.

**Ключевые слова:** Конституция, демократия, суверенитет, социальная

справедливость, парламент, равноправие.

**Annotation:**

This article analyzes the importance of the new edition of the Constitution as a reliable guarantee of human dignity, values, and rights. As the fundamental law of the state, the Constitution plays a crucial role in protecting the rights and freedoms of every citizen. The article examines the main principles of the new edition of the Constitution, its achievements in ensuring human rights, and its role in promoting social justice within society. It also provides information on measures being taken to protect and develop human rights.

This article reveals the place of the new Constitution in social life and its significance in guaranteeing human rights. It encourages readers to pay attention to human rights issues and understand the state's obligations in this area. Another important aspect discussed is the Constitution's compliance with modern requirements and international standards. This expands the role of the new edition of the Constitution not only in our country but also on a global scale in the protection of human rights.

**Keywords:** Constitution, democratic, sovereignty, social justice, parliament, equal rights

**Kirish**

“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”. Ushbu haqqoniy e‘tirof O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-noyabrda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishda alohida ta’kidlandi.

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, shu bilan bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganini ifoda etadi.

Xalq – davlat hokimiyatining birdan-bir manbai O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston xalqining vakolatli vakillari bo‘lmish parlament a‘zolari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli o‘laroq, mamlakatimiz Asosiy Qonunining yangi tahriri bevosita umumxalq referendumida – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan qabul qilindi. Shu ma’noda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o‘zidir. Fuqarolarning xohish-irodasi esa islohotlarning manbai va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

### Asosiy qism

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai”, degan norma belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan.

– Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston inson sha’ni va qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat hisoblangan davlat bo‘lishi;

– xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; “odamlar tashvishi bilan yashash”, xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi;

– barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

– demokratiyaning talabu taomili va ustunligi ham shunda. Bunda qonun chiqaruvchi va ijro organlaridan inson huquqlarini ta’minlash;

– demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

– hokimiyat tarmoqlarini tiyib turish va muvozanatni saqlashda parlament rolini oshirish; davlat xizmatlari sifati va samaradorligini yaxshilash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq etish masalalariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan moddaning ikkinchi bandi birinchi qismida belgilab berilgan O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilishi to‘g‘risidagi norma ham aytib o‘tilgan fikrlarning tasdig‘idir. Hech shubhasiz, ushbu normalar mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda xalqimiz xohish-irodasi va insonlarning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Mazkur moddaning ikkinchi bandida yana bir umume’tirof etilgan tamoyil mustahkamlangan. Unga ko‘ra davlat hokimiyati faqat “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidagina amalga oshiriladi”.

Konstitutsiyadagi ushbu qoidalar 10-moddaning “O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin”, degan birinchi bandida yanada aniq ifoda etilgan va chuqur ochib berilgan.

Ya'ni jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

Ushbu normalar talqini asnosida shuni ta'kidlash o'rinliki, insoniyat tajribasi negizida demokratiyaning ikki turi ishlab chiqilgan. Bulardan biri – to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita demokratiya bo'lsa, ikkinchisi – saylangan vakillarning tegishli muassasalari orqali amalga oshiriladigan vakillik demokratiyasidir.

Shunga ko'ra O'zbekistonda boshqaruv davlat hokimiyatining uch tarmoqdan iborat tizimi orqali amalga oshiriladi: Oliy Majlis qonun chiqaruvchi vakillik organi sifatida qonunlarni qabul qiladi, Vazirlar Mahkamasi boshchiligidagi ijro hokimiyati ularning ijrosini ta'minlaydi, sudlar odil sudlov organlari sifatida nizolarni qonun asosida hal qiladi. Ushbu organlarning har biri muayyan doiradagi vakolatlarga egadir.

Yangi O'zbekiston – demokratik va huquqiy davlat

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasi uchinchi bandida: “Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi”, deb belgilangan.

Bu normalar Yangi O'zbekiston demokratik huquqiy davlat hisoblanib, mamlakatda hokimiyat almashishi faqat Konstitutsiya va qonunlar asosida ta'minlanadi, degan tamoyil hayotga tatbiq etilishining kafolatidir. Davlatning huquqiy siyosati insonparvarlik, demokratiya, ijtimoiy adolat va siyosiy xilma-xillik prinsiplariga asoslanadi.

Yangi O'zbekistonda xalqimizning boy tajribasi va madaniy an'analariga asoslangan demokratiya o'rnatilmoqda, bunda aholining turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlari manfaatlari hisobga olinadi. Zo'ravonlikka asoslangan eskicha ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qoldiqlari nihoyat barham topdi, ko'ppartiyaviylik, g'oya va fikrlar xilma-xilligi odatiy holga aylanib bormoqda.

O'z navbatida, ushbu konstitutsiyaviy normalar umume'tirof etilgan bir qator prinsiplarga ham to'la mos keladi.

Xususan, “Konstitutsiya va qonunlar ustunligi” prinsipini olaylik. Davlat organlarining vakolatlari Prezident, parlament yoki hukumatning har xil normativ-huquqiy hujjatlari bilan emas, balki faqat Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilanadi. Davlat organlari Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz bo'ysunishi va o'z vakolatlarini shu huquqiy negizdagina amalga oshirishi shart. Bu qat'iy mezon qonun ustuvorligining ham muhim belgisi hisoblanadi. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs tomonidan “davlat hokimiyatining tortib olinishi”ga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, insonning siyosiy va boshqa huquq hamda erkinliklarini amalga oshirishi, davlat organlarining demokratik asosda shakllanishini ta'minlash,

jamiyatning demokratik siyosiy tizimini shakllantirishga ko‘maklashish hamda demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish kafolatlanadi.

Yangi O‘zbekiston ijtimoiy va dunyoviy davlat Konstitutsiyamiz Muqaddimasida davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar aniq belgilab berilgan.

Birinchi tamoyili inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqlik. Bu bilan Konstitutsiyamiz insonning asrlar davomida dunyoda shakllangan asosiy ma’naviy-axloqiy qadriyatlari va asosiy huquqlarini o‘zida mujassam etgan holda, insonning oliy qadriyati uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini ekanini e’lon qildi.

Konstitutsiyamizning avvalgi tahriridan farqli o‘laroq, uning yangi tahririning asosiy g‘oyasi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlash, ilgari mavjud bo‘lgan “davlat – jamiyat – shaxs” paradigmasini yangi: “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirishdan iborat.

Davlatimiz rahbari ta’rifiga ko‘ra, inson qadri – mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayot, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog‘lom ekologik muhit ta’minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi.

Bugungi kunda inson qadr-qimmatini, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa’y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi.

Agar dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mavjud. Ya’ni bu Konstitutsiya, tom ma’noda, o‘zbekona “Inson huquqlari to‘g‘risidagi bill”ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor.

Ikkinchi tamoyil – demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqat. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqda “inson qadr-qimmatini” tushunchasi har bir inson hurmatga loyiq ekanini tushunishga asoslangan tenglik va shaxsiy erkinlik tushunchalari bilan uzviy bog‘liq.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarda ta’kidlanganidek, erkinlik - shaxsning o‘z huquqlarini amalga oshirishida davlat aralashuvining yo‘qligini anglatadi. Shu ma’noda, konstitutsiyaviy islohotlarda huquqiy, ijtimoiy davlat imperativini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Birdamlik, adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitalini rivojlantirish tamoyillari ustuvorligiga tayanildi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko‘paydi. Eng muhimi, Asosiy Qonunimizda birinchi marta “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” (1-modda), degan norma belgilandi.

Ijtimoiy davlat, deganda, avvalo, o‘z fuqarolariga muayyan minimal farovonlikni kafolatlaydigan davlat tushuniladi. Yangi O‘zbekistonning asosiy maqsadi – har bir fuqaroga g‘amxo‘rlik qilish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlami uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlashdan iborat.

Uchinchi tamoyil – hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas‘uliyatimizni anglash (avlodlar huquqlari tengligi prinsipi), shuningdek, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil intilish.

Hozirgi vaqtda ko‘pgina rivojlangan davlatlar, global iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda, o‘z Konstitutsiyalariga maxsus ekologik bo‘limlarni kiritmoqda. Jumladan, dunyoning 100 dan ortiq davlati Konstitutsiyalarida jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ehtiyojlariga javob beradigan ekologik huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari mustahkamlangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz yangi xususiyatlarining tahlili bu boradagi normalar mustahkamlangani va yanada kuchaytirilganini ko‘rsatadi. Xususan, Asosiy Qonunimizning 115-moddasida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini, 49-moddasida esa har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlash belgilangan. Davlatning barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash, shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralarni amalga oshirish sohasidagi majburiyatlari ham shular jumlasidandir.

To‘rtinchi tamoyil – davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosiga tayanish.

O‘zbek xalqining tarixi asrlar qa‘riga borib taqaladi va uch ming yildan ortiq davrni qamraydi. Yurtimiz hududida o‘z davrida gullab-yashnagan – Katta Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d, O‘rta asrlardagi Movarounnahr, Turkiston kabi davlatlar; Samarqand, Buxoro, Termiz, Toshkent, Xiva, Shahrisabz singari o‘nlab noyob qadimiy shaharlar jahon madaniyatida yorqin iz qoldirgan. Ana shu boy o‘tmishimiz sivilizatsiya jarayonlari va falsafiy qarashlar, ilm-fan, ayniqsa, tibbiyot, astronomiya,

geografiya, matematika, geodeziya va arxitektura sohalari rivojiga, madaniy va ma'naviy qadriyatlarining shakllanishiga sezilarli darajada hissa qo'shdi.

Shu bilan birga, xalqimiz tarixi, turmush tarzi va an'anaviy madaniyatida ma'naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va huquqiy qadriyatlar muhim o'rin tutgan. Ulug'ajdodlarimizning ma'naviy yuksalishga da'vat etuvchi ezgu amallari, diniy-axloqiy, huquqiy e'tiqodi Konstitutsiyamizni ma'naviy boyitdi.

Konstitutsiyada xalqimizga xos mehr-oqibat, o'zga millat vakillariga hurmat, bilimga intilish, or-nomus va qadr-qimmat, bag'rikenglik va hayo kabi fazilatlar o'z ifodasini topdi. Unda muqaddas Vatanimiz xalqiga xos adolat, rostgo'ylik, olijanoblik, mardlik va saxovat kabi yuksak fazilatlar ham mujassam etildi.

Beshinchi tamoyil – O'zbekistonning jahon hamjamiyati, avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilish.

Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 142 mamlakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan bo'lib, 100 dan ortiq xalqaro tashkilot va tuzilmalarga a'zo hisoblanadi. Shu bilan birga, keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda ochiq va tinch, pragmatik va faol tashqi siyosatning mutlaqo yangi modeli amalga oshirilmoqda.

Mazkur modelning eng muhim vazifalari – milliy rivojlanish maqsadlariga so'zsiz erishish uchun barcha ichki va tashqi resurslarni birlashtirish hamda safarbar etish, mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun qulay tashqi muhitni shakllantirish, milliy manfaatlarini xalqaro maydonda samarali ilgari surish va izchil targ'ib qilish hamda milliy rivojlanish maqsadlariga erishish va mamlakat iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligi ortib borishini ta'minlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishdir.

Bu vazifalarni amalga oshirishda Yangi O'zbekistonning barcha xorij davlatlari bilan munosabatlarni o'rnatishda pragmatik yondashuvni mustahkamlash, ko'p tomonlamalik tamoyilini ilgari surish, globallashtirishning ijodiy jarayonlarini rivojlantirish, o'zaro manfaatli va teng huquqli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, davlatimizni dunyoning faol va tadbirkor mamlakatlaridan biriga aylantirishga qaratilgan tashqi siyosati asosiy omil bo'ladi.

Buni 2017-2022-yillarda birgina BMT doirasida O'zbekiston Prezidenti tomonidan xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizmni yanada rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa sohalarda 30 dan ortiq tashabbus ilgari surilgani ham tasdiqlaydi. Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan keyingi yillarda BMT Bosh Assambleyasining 7 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi va bularning barchasi, albatta, BMTga a'zo davlatning eng faol va samarali rahbari sifatida e'tirof etilgan Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosatining bemisl muvaffaqiyatidir.

Oltinchi tamoyil – fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va

konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta‘minlash.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyat qurish, unda tenglik va teng huquqlilik prinsiplarini hayotga tatbiq etish, fuqarolar, ayniqsa, ayollar va bolalar huquqlarini kamsitmaslik g‘oyalariga asoslanadi. Bunda yurtimizda inson huquqlari madaniyati tobora yuksalayotgani, inson hayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmatiga hurmat ruhi shakllanayotgani alohida ahamiyat kasb etadi.

Bosh qomusimiz Muqaddimasida O‘zbekiston xalqi ushbu Konstitutsiyani, jumladan, «fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta‘minlash maqsadida» qabul qilgani alohida ta‘kidlangan. Shu ma‘noda, Asosiy Qonunimiz – biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo‘llanma, balki milliy g‘urur-iftixor, kerak bo‘lsa, ushbu zaminda istiqomat qilayotgan, jinsi, irqi, millati, tili, dinidan qat‘i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam huquqiy himoya hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish ekanligi qat‘iy belgilandi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi. Ayniqsa, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlangani e‘tiborga sazovor.

Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning:

birinchidan, mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi;

ikkinchidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi;

uchinchidan, yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishiga taalluqli konstitutsiyaviy normalar mustahkamlab qo‘yildi. Eski tahrirdagi matnda Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashga doir ushbu mexanizmlar mavjud emasdi.

Bosh qomusimizning “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” bobidagi 15-16-moddalarning yangi va eski matnidagi normalari o‘zaro qiyoslansa, bu fikrlarimiz qanchalik haqqoniy ekani o‘z tasdig‘ini topadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq:

“O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”.

Shu o‘rinda 2023 yil 8 may kuni Prezidentimizning “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinganini ta‘kidlash lozim. Ushbu muhim hujjat talablari:



yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish;  
unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O‘zbekiston ulug‘vor  
g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish;  
davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda  
yo‘lga qo‘yish;

fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini  
ta‘minlash maqsadlariga qaratilgan. Farmonda belgilanganidek, “yangi tahrirdagi  
Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va  
tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida  
to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llaniladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda  
muhim normalarning hayotga qat‘iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar  
tomonidan ana shu konstitutsiyaviy qoidalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi yurtimiz  
va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-  
qimmatini ulug‘lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda. Prezidentimiz  
ta‘kidlaganidek, “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha  
emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot  
kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta‘minlashni nazarda tutamiz”.

### **Xulosa**

Muxtasar aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e‘tibor  
inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilganini ishonch  
bilan ta‘kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning qabul qilinishi bilan bu  
borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi  
O‘zbekiston o‘zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat‘iy sodiqligini  
yana bir bor namoyon etdi.

Konstitutsiyamizda Yevropa, Osiyo, Sharq va Amerika mintaqalarida joylashgan  
dunyo davlatlarining ijobiy konstitutsiyaviy tajribasi o‘z aksini topgan. Asosiy  
Qonunimiz huquqshunos olimlar, siyosatshunoslar, ko‘plab xalqaro tashkilotlar  
mutaxassisleri tomonidan sinchiklab o‘rganilgan bo‘lib, unga inson huquqlari bo‘yicha  
xalqaro huquq normalari qo‘shimcha ravishda uyg‘unlashtirilgandir.

Ishonchimiz komilki, xalqaro tashkilotlar vakillari va ekspertlar xolis va to‘g‘ri  
ta‘kidlaganlaridek, O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi  
"Inson sha‘ni va qadr-qimmatini uchun" tamoyili asosida xalq farovonligini yanada  
yuksaltirish, inson, fuqarolik jamiyati va davlatni jadal rivojlantirish uchun mustahkam  
zamin yaratdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi, 2023-yil, 1-may.
2. <https://lex.uz/docs/6445145>
3. B. Turdiyev, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘quv qo‘llanma. – T.: “Impress media nashriyoti, 2023-y. – 150 b.
4. <https://daryo.uz/2023/03/12/yangilangan-ozbekistonga-yangilangan-konstitutsiya>.